| <b>Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich</b>                                                                                                            |     |
| INTERNATIONAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MICE TOURISM AND ITS ADAPTATION TO THE CONDITIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....                  | 501 |
| <b>Ilkhomova Gulnoza Zayniddin kizi</b>                                                                                                              |     |
| MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH.....                                                     | 507 |
| <b>Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li</b>                                                                                                     |     |
| TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI .....                                       | 512 |
| <b>Umarova Munira Muxitdinovna</b>                                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                                                                                                                          |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| JINDA ARRALI SILINDR TISHLARIDAN TOLANI AJRATISH JARAYONINI HAVO OQIMI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRUVCHI ENERGIYA TEJAMKOR QURILMANI MODELLASHTIRISH.....                                                                                      | 516 |
| <b>Mirzakarimov Mirsharofiddin Mirzaabdurahimovich</b>                                                                                                                                                                                   |     |
| TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TOMONIDAN ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNI XORIJGA EKSPORT QILISH MEKANIZMLARI .....                                                                                                                            | 524 |
| <b>Matkarimov Anvar Tajimatovich</b>                                                                                                                                                                                                     |     |
| MUHANDISLIK KONSTRUKSIYALARIDA MURAKKAB SIRTLARNI CHIZMA GEOMETRIYA YORDAMIDA TAHLIL QILISH .....                                                                                                                                        | 528 |
| <b>Qutbtiddinov Hikmatillo Qudratillo o'g'li</b>                                                                                                                                                                                         |     |
| SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                                                                                                               | 533 |
| <b>Ismailov Bobir Salomovich</b>                                                                                                                                                                                                         |     |
| QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA KAPITAL QO'YILMALAR XUSUSIYATLARI VA ULAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                                                                                | 540 |
| <b>Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich</b>                                                                                                                                                                                                   |     |
| QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALAR VA ULAR BUXGALTERIYA HISOBINING XUSUSIYATLARI.....                                                                                                                                       | 545 |
| <b>Fayzullayev Murodjon Nematulayevich</b>                                                                                                                                                                                               |     |
| O'ZBEKISTONDA KLASSTER IQTISODIYOTI: INVESTITSİYALAR, EKSPORT VA SANOAT ISHLAB CHIQARISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI (2022-2024-YILLAR KESIMIDA).....                                                                                  | 550 |
| <b>O'rinboyev Ulug'bek Otabekovich, Jabbarov Majidbek Erzodovich, Ruzmetova Gulira'no Atabekovna</b>                                                                                                                                     |     |
| GLOBAL YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA EKOLOGIK, IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARNING TAHLILI .....                                                                                         | 556 |
| <b>M.M.Muminova</b>                                                                                                                                                                                                                      |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SMART TURIZM SHAROITIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON ISTIQBOLLARI .....                                                                                        | 565 |
| <b>Najmidinov Azizbek Bahrom o'g'li</b>                                                                                                                                                                                                  |     |
| ТЕКУЩИЕ УГРОЗЫ И ВЫЗОВЫ, СВЯЗАННЫЕ С МИГРАЦИОННЫМИ КРИЗИСАМИ .....                                                                                                                                                                       | 571 |
| <b>Бегматов Хусанбек</b>                                                                                                                                                                                                                 |     |
| ELEKTRON TIJORAT SEKTORI UCHUN ONLAYN REKLAMA SAMARADORLIGINI BAHOLASH .....                                                                                                                                                             | 575 |
| <b>Rajabova Dilbar Ixtiyor qizi</b>                                                                                                                                                                                                      |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON MEVA-SABZAVOTCHILIK SOHASIDA MAHSULOT YETISHTIRISHDAN TORTIB UNI BOZORGA CHIQARISHGACHA BO'LGAN JARAYONDA NEYROMARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI ..... | 582 |
| <b>Sadiy Shukrillo Asatillo o'g'li</b>                                                                                                                                                                                                   |     |
| YOSH TADBIRKORLAR FAOLIYATIDA INNOVATSION G'OYALARNING AMALIY AHAMIYATI .....                                                                                                                                                            | 590 |
| <b>Ergashev Oybek Xaydaraliyevich</b>                                                                                                                                                                                                    |     |
| ТЕХНОЛОГИЯ НЕТРАДИЦИОННОГО СБАЛАНСИРОВАННОГО КОМБИКОРМА, С ОБОГАЩЕННЫМ БЕЛКОМ И ФЕРМЕНТАМИ СОСТАВОМ ИЗ ГРИБКА PLEUROTUS OSTREATUS.....                                                                                                   | 594 |
| <b>Ниезов Хусан Ниез угли</b>                                                                                                                                                                                                            |     |
| MINTAQAVIY RIVOJLANISH INDIKATOR TIZIMINING AHAMIYATI .....                                                                                                                                                                              | 601 |
| <b>Turdiyev Ulug'bek Qayumovich</b>                                                                                                                                                                                                      |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI .....                                                                                                                                                 | 608 |
| <b>Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li</b>                                                                                                                                                                                              |     |
| TO'QIMACHILIK KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI BOSHQARISH JARAYONI VA TIZIMI .....                                                                                                                                                   | 612 |
| <b>Xonkeldiyeva Komilaxon Ravshanjon qizi</b>                                                                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                                                                          |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| SPORT SANOATINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA OID XORIJIY TAJRIBALAR<br>TAHLILI.....                                                                                      | 616 |
| <b>Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich</b>                                                                                                                                  |     |
| MARKAZLASHTIRILGAN DISPETCHERLIK TIZIMIDA POEZDLAR HARAKATI XAVFSIZLIGINI<br>TA'MINLASHDA AVTOMATLAR NAZARIYASIGA ASOSLANGAN INTEGRATSIYALASHGAN<br>MATEMATIK MODEL..... | 620 |
| <b>Muhiddinov Obidjon Omonjon o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| ПРОЦЕНТНЫЙ РИСК ПО КРЕДИТАМ: АНАЛИЗ, ОЦЕНКА И УПРАВЛЕНИЕ.....                                                                                                            | 627 |
| <b>Абдуллаев Шахобиддин Шамсиддинович</b>                                                                                                                                |     |
| REDUCTION OF GREENHOUSE GAS EMISSIONS: EMISSION QUOTAS OR MANDATORY<br>CONTROL TECHNOLOGIES .....                                                                        | 633 |
| <b>Bobonov Doston Abdumo'min o'g'li, Qozoqboyev Jasur Abduvali o'g'li</b>                                                                                                |     |
| AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI<br>TAKOMILLASHTIRISH (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....                                                        | 637 |
| <b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>                                                                                                                                    |     |
| ПОЛУЧЕНИЕ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОГО ЦЕМЕНТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ<br>ВОЗОБНОВЛЯЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ ЭНЕРГИИ.....                                                                          | 643 |
| <b>Арипова Мастура Хикматовна, Ташбаев Джахангир Назим угли</b>                                                                                                          |     |
| МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОМЫШЛЕННЫХ ГОРЕЛОК И ИССЛЕДОВАНИЕ ИХ ТЕПЛОВОЙ<br>НАГРУЗКИ .....                                                                                          | 652 |
| <b>Ражабов Азамат Тоирович</b>                                                                                                                                           |     |
| QISHLOQ XO'JALIK TEXNIKALARI MARKETINGI VA UNING SAMARADORLIK<br>KO'RSATKICHLARI.....                                                                                    | 658 |
| <b>Xolmirzayev Bobur Mansurovich</b>                                                                                                                                     |     |



# QISHLOQ XO'JALIK TEXNIKALARI MARKETINGI VA UNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

**Xolmirzayev Bobur Mansurovich**

Toshkent davlat agrar universiteti,

O'simlikshunoslik kafedrası dotsenti v.b., PhD

E-mail: [bobur0844@gmail.com](mailto:bobur0844@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada agrar soha korxonalarini ma'naviy yangi texnika va qishloq xo'jalik mashinalari bilan ta'minlashda marketing faoliyatining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ma'naviy yangi texnikalarning ma'naviy eskirgan texnikalarga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash usullari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari, ma'naviy yangi va ma'naviy eskirgan texnikalar, marketing, raqobat, baho.

**Abstract.** This article examines the importance of marketing activities in supplying agricultural sector enterprises with technologically advanced agricultural machinery. The study analyzes the efficiency indicators of modern equipment in comparison with obsolete machinery, as well as the methods used to calculate these indicators.

**Keywords:** tractors, agricultural machinery, modern and obsolete equipment, marketing, competition, price.

**Аннотация.** В статье рассматривается значение маркетинговой деятельности в обеспечении предприятий аграрного сектора морально новой техникой и сельскохозяйственными машинами. Проанализированы показатели эффективности морально новой техники по сравнению с морально устаревшей, а также методы их расчёта.

**Ключевые слова:** тракторы, сельскохозяйственные машины, морально новая и морально устаревшая техника, маркетинг, конкуренция, цена.

## KIRISH

Agrar sohada texnikalardan foydalanish samaradorligini tahlil etish va uni oshirish yo'llarini ko'rsatish mamlakat iqtisodiyotini raqamlashtirish bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy tahlildan to'g'ri xulosalar chiqarish uchun, avvalo, samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar guruhlariga ajratiladi. Ushbu omillar quyidagi guruhlariga bo'linadi: a) ishlab chiqarish omillari; b) bozor munosabatlari omillari.

Ishlab chiqarish omillariga asosiy vositalar, ya'ni yer resurslari, suv resurslari, mehnat resurslari, texnika resurslari va boshqa omillar kiradi. Bozor munosabatlari omillariga esa bozor konyunkturasining holati, istiqboli, uning dinamikasi, raqobat sharoitlari va ko'lam kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bozor omillari mahsulotning sifati, bahosi, unga bo'lgan talab va taklif, raqobatdagi mahsulotlar miqdori, shuningdek, raqobatchilarning bozor siyosati kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakat taraqqiyotining raqamli iqtisodiyot munosabatlari sharoitida bozorni o'rganish, mahsulot sifatini yaxshilashga erishish, o'z mahsuloti bahosini erkin belgilash hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalar marketing tushunchasining mohiyatini va uning samaradorligini oshirish asoslarini tashkil etadi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, agrar sohaga, jumladan agroklyasterlar va fermer xo'jaliklariga texnikalar marketingini samarali yo'lga qo'yish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Agrar sohada texnikalar marketingi va uning samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar orasida bir qator doktorlik dissertatsiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, D.Q. Ahmedovning "Effektivnost funktsionirovaniya khlopkovodstva Uzbekistana" mavzusidagi tadqiqot ishida paxtachilik sohasida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi va ularni takomillashtirish masalalari atroflicha tahlil qilingan [1]. F. Nazarovanning "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish



istiqbollari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida agrar tarmoqni bozor munosabatlariga moslashtirish, texnik ta’minotni yaxshilash va marketing mexanizmlarini rivojlantirish yo’nalishlari yoritib berilgan [5]. U. Nigmatjonovning “Problemy transformatsii i funktsionirovaniya APK Uzbekistana v perekhodnyy period k rynochnoy ekonomike” mavzusidagi ishida agrosanoat majmuasida texnik ta’minot, boshqaruv va bozor infratuzilmasining transformatsiya jarayonlari kompleks tahlil qilingan [6].

Shuningdek, E. Yusupovning “Paxtachilik majmuini isloh qilish va tarmoqlararo iqtisodiy mutanosiblikni shakllantirish muammolari” hamda O. Murtazayevning “Paxtachilik majmuasi samaradorligining metodologik masalalari” mavzusidagi tadqiqotlarida paxtachilik sohasida texnik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan nazariy-metodologik yondashuvlar ishlab chiqilgan bo’lib, ushbu ishlar agrar sohada texnikalar marketingi va ulardan samarali foydalanishni takomillashtirish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi [11], [12].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Marketing deganda tovarni bozorda sotish bilan bog’liq bo’lgan faoliyat tushuniladi. Jumladan, marketing tovar ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o’rtasidagi xizmatni, tovarni yetishtirish va sotish jarayoni bilan bevosita bog’liq bo’lgan boshqaruvni o’z ichiga olgan tadbirkorlik faoliyatidir [4]. Shuningdek, kengroq ma’noda qaralganda, marketing baholar tizimi, mahsulotlarni saqlash va joylashtirish, savdo yarmarkalarini tashkil etish, mahsulotni sotish, savdo xodimlarini boshqarish, mahsulotni tashish, ijtimoiy talablarni bajarish, savdo shoxobchalari ochish uchun joy tanlash, iste’molchilarni o’rganish, reklama tadbirlarini olib borish, bozor tadqiqotlarini amalga oshirish va boshqa shu kabi jarayonlarni qamrab oladi [4]. Bozor raqobati sharoitida agrar soha ishlab chiqarishining yuqori rentabelli ishlashini ta’minlash uchun, eng avvalo, zamonaviy va yuqori unumga ega bo’lgan texnikalar bilan ta’minlanish katta ahamiyat kasb etadi [1]. Ushbu holatni e’tiborga olgan holda, turli rusumdagi yangi turdosh qishloq xo’jalik mashinalari va traktorlarining qaysi birining iqtisodiy samaradorligi yuqori ekanligini aniqlash uchun funksional-qiymat tahlili (FQT) usulini qo’llash qulay usullardan biri hisoblanadi [2]. FQT — bu texnikaning iste’molchi uchun ahamiyatligi va uni yaratish xarajatlari o’rtasidagi optimal nisbatni ta’minlash asosida, uning foydali funksiyalarini rivojlantirish maqsadida texnikalarni kompleks texnik-iqtisodiy tadqiq etish usuli hisoblanadi [3]. FQT obyekti sifatida texnikalarning umumiy iste’mol xususiyatlari hamda uning alohida qismlarining xususiyatlari ham ko’rib chiqilishi mumkin.

FQTning asosiy maqsadi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, bajariladigan ishlarning sifati va unumdorligini oshirishdan iborat [1], [2], [3].

## TAHLIL VA NATIJALAR

O’zbekiston qishloq xo’jalik mashinasozligi mamlakat iqtisodiyotida salohiyatli o’rinni egallab turgan tarmoq hisoblanadi [6]. O’zining yuqori malakali muhandis-texnik xodimlari, mutaxassisleri, olimlari va ishchilariga, shuningdek, yirik ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqotlar bazasiga ega bo’lgan nufuzli tarmoq keyingi yillarda keskin rivojlanmoqda [11].

O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qarori bilan qishloq xo’jaligi va chorvachilik mashinasozligi zavodlari negizida “O’zqishloqmashxolding” kompaniyasi tashkil etildi [5]. Bu kompaniyani tuzishdan maqsad markazlashgan boshqaruv tizimini yaratish va shu asosda O’zbekistonning ushbu sohada tutgan o’rnini qo’ldan bermaslik, klasterlar va fermerlarni zarur texnika bilan ta’minlash uchun tarmoqni rivojlantirish hamda bunday texnikani xorijdan mumkin qadar kamroq import qilishga erishishdan iborat [12]. Shu bilan birga, respublikamizda ishlab chiqarilgan qishloq xo’jalik texnikasining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish va uni eksport qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda [1].

Kompaniyada hozirgi paytda o’ttizdan ortiq loyihadan tashkil topgan, ishlab chiqarishni uyg’unlashtirishga qaratilgan dastur bo’yicha ish olib borilmoqda [6]. Dasturda kompaniya korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sanoatning boshqa tarmoqlari uchun ham ishlab chiqarish, ya’ni bozorga yo’naltirish rejalashtirilgan. Umuman olganda, “O’zqishloqmashxolding” konstruktorlari tomonidan 60 nomdagi mashinalar modernizatsiya qilindi [11]. Xolding korxonalari bugungi kunda buyurtma asosida 40 dan ortiq mashinalar agregatlanadigan 100 dan ziyod texnikani ishlab chiqarmoqda.

Biroq, bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo’jaligi korxonalarini moddiy-texnika resurslari, xususan, texnika vositalari va boshqa resurslar bilan ta’minlash hamda ulardan foydalanish darajasini talabga to’liq javob beradi, deb bo’lmaydi [1]. Tahlillar shuni ko’rsatmoqdaki, hozirgi paytda ko’pgina paxta va g’alla yetishtiruvchi fermer xo’jaliklari texnika va materiallarni sotib olish imkoniyatiga yetarli darajada ega emas [2]. Chunki keyingi qirq yil davomida yetishtirilayotgan qishloq xo’jalik mahsulotlari bahosi bilan ularni ishlab chiqarishda qo’llanilayotgan texnikalar bahosi o’rtasidagi farq keskin oshib ketgan [5].

Shu bilan birgalikda, fermerlarga berilayotgan imtiyozli kredit mablag’larini birja savdolariga yo’naltirish taqiqlangan [4]. Natijada xo’jaliklar o’zlari uchun zarur bo’lgan moddiy-texnika resurslarini o’z vaqtida va kerakli

miqdorda sotib olish imkoniyatiga ega bo'lmayaptilar. Bu esa agrotexnika tadbirlarining kechikishiga va oxir-oqibatda olinadigan hosil hajmining kamayishiga sabab bo'lmoqda [1].

Ushbu muammoni ijobiy hal qilish uchun fermer xo'jaliklariga moddiy-texnika resurslarini erkin sotib olish maqsadida o'rta muddatli imtiyozli kreditlar berish maqsadga muvofiq [5]. Kredit berish tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga yil boshida kredit liniyasi ochib qo'yish orqali amalga oshirilishi lozim.

Fermer xo'jaligi o'ziga ochilgan kredit tizimi bo'yicha xohlagan vaqtda kredit olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bizning fikrimizcha, fermer xo'jaligiga beriladigan kreditda olinadigan hosil garov sifatida qabul qilinishi, kredit miqdori esa hosil qiymatining 60–70 foizi miqdorida belgilanishi maqsadga muvofiq [1], [12]. Ana shunda qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning moddiy-texnika resurslarini sotib olish uchun mablag' taqchilligi muammosi ma'lum darajada ijobiy hal etiladi.

Endi agrar sohaga kirib kelayotgan yangi, zamonaviy rusumdagi texnikalarning samaradorligi to'g'risida to'xtalamiz. Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va bu borada qo'llaniladigan moddiy-texnika resurslaridan unumli foydalanish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir [2]. Moddiy-texnika resurslaridan unumli va samarali foydalanishda muntazam monitoring o'tkazish hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil etib borish zarur [3].

Bunday iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqarish jarayoni yakunida olinadigan foyda ko'rsatkichlari hamda mehnat unumdorligining o'zgarishi bilan taqqoslash orqali aniqlanadi [1]. Moddiy-texnika resurslarining umumiy samaradorlik ko'rsatkichi ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarni qoplash darajasini bildirsa, nisbiy samaradorlik ko'rsatkichi korxonada foydalanilayotgan moddiy-texnika resurslarini yangi sotib olinayotgan resurslar bilan yoki bir xil dehqonchilik operatsiyasini turli rusumdagi texnikalar yordamida bajarishda qaysi rusumdagi texnikadan foydalanish afzal ekanligini ko'rsatadi [2].

Umumiy samaradorlik kelgusidagi ishlarni rejalashtirish uchun muhim bo'lsa, nisbiy samaradorlik mavjud variantlar orasida eng maqbulini tanlash uchun zarur hisoblanadi. Umumiy samaradorlik jami sarflangan investitsiyadan foydalanish natijadorligini bildirsa, nisbiy samaradorlik qo'shimcha sarflangan investitsiyadan foydalanish samaradorligini ifodalaydi [1], [3].

Funksional-qiymat tahlili (FQT) uslubi bo'yicha yangi rusumdagi texnikaning afzalliklari amalda qo'llanilayotgan texnika rusumiga nisbatan quyidagicha hisoblanadi:

$$H = H_1 \times H_2 \times H_3 \times H_4$$

bu yerda:

$N$  — takomillashganlik darajasining umumiy koeffitsiyenti;

$N_1$  — o'lchovlar bo'yicha takomillashganlik darajasi, u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$N_1 = \left[ \left( \frac{R_1}{R_0} - 1 \right) + \left( \frac{\tilde{A}_1}{\tilde{A}_0} - 1 \right) + \left( \frac{\hat{A}_1}{\hat{A}_0} - 1 \right) \right]$$

$N_2$  — unumdorlik bo'yicha takomillashganlik darajasi;

$$N_2 = \left[ \left( \frac{V_1}{V_0} - 1 \right) + \left( \frac{W_1}{W_0} - 1 \right) \right]$$

$N_3$  — mehnat sig'imi bo'yicha takomillashganlik darajasi:

$$N_3 = \left[ \frac{T_0}{T_1} - 1 \right]$$

$N_4$  — texnika bahosi bo'yicha takomillashganlik darajasi:

$$N_4 = \left[ \frac{P_1}{P_0} - 1 \right]$$

Keltirilgan:

1. Eski va yangi texnika o'lchovlarini taqqoslash:

$R_1$  va  $R_0$  — yangi va eski texnikaning uzunligi, sm;

$G_1$  va  $G_0$  — yangi va eski texnikaning kengligi, sm;

$E_1$  va  $E_0$  — yangi va eski texnikaning balandligi, sm.

2. Quvvatlarni taqqoslash:

$V_1$  va  $V_0$  — yangi va eski texnikaning quvvati, ot kuchi;

$W_1$  va  $W_0$  — yangi va eski texnikaning unumdorligi, shartli etalonga.

3. Xizmat ko'rsatish mehnat sig'imini taqqoslash:

$T_1$  va  $T_0$  — xizmat ko'rsatish mehnat sig'imi, bir mashina-soatda shartli etalonga [1].



#### 4. Texnikalar bahosini taqqoslash:

$P_1$  va  $P_0$  — yangi va eski texnikaning bahosi, bir ot kuchiga nisbatan so'm [1].

Agar umumlashtirilgan formulaning natijasi musbat bo'lsa, yangi texnika eskisiga nisbatan samarali hisoblanadi, manfiy bo'lgan holatda esa uning samaradorligi past bo'ladi [1]. Qishloq xo'jaligiga jalb etilayotgan texnikalar samaradorligini aniqlashda funksional-qiymat tahlili (FQT) uslubini qo'llab erishilgan natijalarni keltiramiz.

Hozirgi kunda Janubiy Koreyaning LS Mtron kompaniyasi bilan hamkorlikda 100 ot kuchiga ega bo'lgan "TTZ100HS" va "TTZL1004", 62 ot kuchiga ega bo'lgan "U62" hamda 38 ot kuchiga ega bo'lgan "L38" modellaridagi yangi qishloq xo'jalik traktorlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan [2], [3]. Paxta yetishtirishga mo'ljallangan uch g'ildirakli "TTZ100HC" traktori "TTZ-80.11" chopiq traktorining muqobili hisoblanadi. Yuqoridagi uslub bo'yicha FQTni hisoblaganimizda, u 0,83 koeffitsiyentni tashkil etdi, demak, avval foydalanib kelinilgan "TTZ-80.11" chopiq traktoriga nisbatan "TTZ100HS" traktoridan foydalanish samarali ekanligini anglatadi [1]. Qishloq xo'jaligi korxonalarining bozor munosabatlariga moslashishi bir qator muammolarni, jumladan, texnika sotib olishni moliyaviy ta'minlash, ya'ni moliyalashtirish manbalarining yangi imkoniyatlarini izlab topish masalasini dolzarb muammolardan biri etib qo'ymoqda [5]. Bunday muammolarni hal etish yo'llaridan biri lizingdan foydalanish hisoblanadi. Bu borada O'zbekistonda "O'zagrolizing" kompaniyasi qishloq xo'jaligi korxonalariga texnika yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi asosiy lizing kompaniyalaridan biri hisoblanadi [5]. "O'zagrolizing" kompaniyasi "O'zqishloqxo'jalikmashxolding" korxonalarida ishlab chiqarilgan texnikalarni "O'zagromash-servis" uyushmasiga, klasterlarga, fermer xo'jaliklariga va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariga lizing asosida yetkazib beradi. Lizingga berilayotgan texnikalar qiymatining 15–40 foizi buyurtmachilar tomonidan bo'nak sifatida to'lanib, qolgan qismi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi [5].

Bugungi kunda fermer xo'jaliklariga imtiyozli shartlarda lizingga beriladigan qishloq xo'jaligi texnikalari qatoriga TL-100, TS-135, ARION-150C rusumli haydov traktorlar, Dominator-130 rusumli g'alla o'rish kombaynlari, 2-PTS-4-793-03A rusumli traktor tirkamalari, KXU-4B kultivatorlari, SCHX-4B chigit ekish seyalkalari, Zirkon 8/250 rusumli rotatsion boronalar, Variopack 110 DR 70 tuproq zichlagichlar, OVX-600, VP-1 va ORPD-12M rusumli purkagichlar, OSHU-DKM-2000 va OSHU-200 rusumli changlatgichlar, EuroPal 7, PON-4x40 va PON-4+1x40 rusumli pluglar, RMU-0,5 rusumli mineral o'g'it sochgichlar hamda jami 35 turdan ortiq texnikalar kiradi [5].

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan texnikalarning ish unumdorligini oshirish maqsadida "Toshkent traktor zavodi" OAJ negizida qishloq xo'jalik texnikalarini ishlab chiqaruvchi "Toshkent qishloq xo'jalik texnikalari zavodi" OAJ tashkil etildi. Janubiy Koreyaning LS Mtron kompaniyasi bilan hamkorlikda 100 ot kuchiga ega bo'lgan "PLUS100" va "LS1004", 62 ot kuchiga ega bo'lgan "U62" hamda 38 ot kuchiga ega bo'lgan "L38" modellaridagi yangi qishloq xo'jalik traktorlarini 2015-yildan boshlab ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi [2], [3].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Qishloq xo'jalik mashina va texnikalariga sarflangan ijtimoiy mehnat unumdorligining iqtisodiy samaradorligini to'g'ri baholashning eng maqbul usullaridan biri funksional-qiymat tahlili ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich yordamida ma'naviy yangi texnikalarning samaradorligi ma'naviy eskirgan texnikalarning ko'rsatkichlariga nisbatan musbat bo'lsa, bunday texnikadan foydalanish samarali hisoblanadi.

2. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlashda texnikaning hajmi, mehnat unumdorligi, bahosi va boshqa ko'rsatkichlari asos qilib olinadi. Bunda yangi texnika ilgari qo'llanilayotgan texnikaga nisbatan taqqoslanadi. Biz tadqiqotda mutlaq hamda nisbiy xarajat ko'rsatkichlarini aniqlash usullaridan farqli o'laroq, umumiyroq bo'lgan va barcha tipdagi texnikalar uchun qo'llash mumkin bo'lgan taqqoslama ish birliklaridan, ya'ni shartli etalon gektar, mashinaning bir soatlik ish unumi (taqqoslama bahoda olinadi), moto-soat va baho ko'rsatkichlaridan ham foydalanishni taklif etamiz.

3. Qishloq xo'jaligiga texnikalarni yetkazib beruvchi raqobatchi va qo'shma korxonalar sonini ko'paytirish hamda marketing faoliyatini rivojlantirish lozim. Chunki qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining samaradorligi va uning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan moddiy-texnika resurslari bilan yetarli darajada hamda arzon narxlarda ta'minlanishiga bog'liq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmedov, D. Q. (2012). Effektivnost funktsionirovaniya khlopkovodstva Uzbekistana [O'zbekistonda paxtachilik faoliyatining samaradorligi] (doktorlik dissertatsiyasi). Samarqand davlat universiteti.
2. Herranz-Matey, I. (2025). Agricultural tractor efficiency development as a sustainable model and evaluating automation implementation. International Journal of Agricultural Sustainability. <https://doi.org/10.1080/14735903.2025.2546703>



3. Herranz-Matey, I., & Ruiz-Garcia, L. (2025). Analyzing tractor productivity and efficiency evolution: A parametric assessment. *Agriculture*, 15(15), Article 1577. <https://doi.org/10.3390/agriculture15151577>
4. Mgale, Y. J. (2020). Marketing efficiency and determinants of rice marketing channels. *Agricultural Economics*. <https://doi.org/10.1111/1467-8489.12380>
5. Nazarova, F. (2010). Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari [Iqtisodiy liberallashtirish sharoitida O'zbekiston agrar sektorini rivojlantirish istiqbollari] (doktorlik dissertatsiyasi). Toshkent.
6. Nigmatjonov, U. (2008). Problemy transformatsii i funktsionirovaniya APK Uzbekistana v perekhodnyy period k rynochnoy ekonomike [Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston APKsi transformatsiyasi va faoliyati muammolari] (doktorlik dissertatsiyasi). Toshkent.
7. Przywara, A., Koszel, M., Krawczuk, A., & Anifantis, A. S. (2022). Analysis of new farm tractors market in Poland (2010–2020). *AgricEng International: CIGR Journal*. <https://doi.org/10.2478/agriceng-2022-0006>
8. Xolmurzayev, M. (2012). Paxtachilik fermer xo'jaliklari moddiy-texnika resurslarini modernizatsiyalash va uning iqtisodiy samaradorligi [Paxtachilik fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika resurslarini modernizatsiya qilish va uning iqtisodiy samaradorligi]. Samarqand.
9. Xolmurzayev, M., Xurramov, A., & Nasrullayev, A. (2021). History of service delivery to agricultural machinery and problems in the current environment. *Development Issues of Innovative Economy in the Agricultural Sector*, 397–400.
10. Yahin, S. (2020). Improving the operational efficiency of tractors by ensuring work output. *BIO Web of Conferences, FIES 2020*. [https://www.bio-conferences.org/articles/bioconf/full\\_html/2020/01/bioconf\\_fies2020\\_00111/bioconf\\_fies2020\\_00111.html](https://www.bio-conferences.org/articles/bioconf/full_html/2020/01/bioconf_fies2020_00111/bioconf_fies2020_00111.html)

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)